

**Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish,
shakllanish va taraqqiyot nazariyalari**

Abdullayeva Iroda

Xurramov Suhrob

Raufov Dostonbek

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar
fakulteti, tarix ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalari.

Shamsiddin Xudoyberdiyev

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatchilikning nazariy masalalari keng qamrovda tahlil qilinadi. Xususan, davlatchilik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy shakllanish jarayoni va rivojlanish bosqichlari ilmiy yondashuvlar asosida yoritiladi. Shuningdek, davlatlarning vujudga kelishi va taraqqiyotini izohlovchi asosiy nazariyalar — teokratik, patriarxal, shartnoma, zo'ravonlik hamda iqtisodiy-materialistik nazariyalar tahlil qilinadi. Maqolada davlatchilik tarixini davrlashtirish masalasi, unga oid turli ilmiy qarashlar va ularning metodologik ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari davlatchilikning evolyutsion taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda tarix, siyosatshunoslik va huquqshunoslik sohalari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: davlatchilik, davlat tushunchasi, davrlashtirish, davlatning shakllanishi, davlat nazariyalari, taraqqiyot bosqichlari, siyosiy tizim, tarixiy jarayon

Davlatchilik insoniyat tarixidagi eng muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biridir. Davlat jamiyatni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va xavfsizlikni ta'minlashda asosiy institut sifatida shakllangan. Davlatchilikning nazariy masalalarini o'rganish davlatning kelib chiqishi, mohiyati va taraqqiyot qonuniyatlarini chuqurroq

anglash imkonini beradi. Shu bois ushbu mavzu tarix, siyosatshunoslik va huquqshunoslik fanlari uchun dolzarb hisoblanadi. Davlatchilik masalalarini nazariy jihatdan o'rganish qadimgi Sharq, Antik dunyo va o'rta asr siyosiy tuzilmalarini tahlil qilish orqali davlat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Davlat — bu muayyan hududda yashovchi aholi ustidan siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi, majburiy boshqaruv apparatiga ega bo'lgan ijtimoiy institutdir. Davlatchilik esa davlatning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar majmuasidir. Davlat jamiyatdan ajralib chiqqan holda, ijtimoiy tartibni saqlash va manfaatlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Davlat tushunchasi qadimgi davrlardayoq shakllangan. Qadimgi Misr, Shumer, Bobil va Xitoyda davlat hokimiyati ilohiylashtirilgan bo'lib, hukmdorlar “xudo vakili” sifatida qaralgan. Antik Yunonistonda esa Aristotel davlatni “umumiy manfaatni ko'zlovchi siyosiy birlik” sifatida ta'riflagan. Rim huquqshunoslari davlatni huquqiy institut sifatida shakllantirib, boshqaruv va qonunchilik tizimini rivojlantirgan. O'rta asrlarda davlat feodal munosabatlar asosida faoliyat yuritgan bo'lsa, yangi davrda milliy davlatlar shakllandi. Davlat tarixini davrlashtirish ilmiy jihatdan murakkab masala hisoblanadi. Turli tarixiy maktablar davrlashtirishda iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy mezonlardan foydalanadi. Masalan, formatsion yondashuv davlatlarni quldorlik, feodal, kapitalistik va sotsialistik bosqichlarga ajratadi. Sivilizatsion yondashuv esa davlat taraqqiyotini madaniy va hududiy xususiyatlarga asoslab izohlaydi. Har ikki yondashuv ham davlatchilikni tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv K. Marks va F. Engels qarashlariga asoslanadi. Sivilizatsion yondashuv esa davlat taraqqiyotini madaniy, diniy va hududiy omillar bilan bog'laydi. A. Toynbi va S. Xantington kabi olimlar davlatlarni alohida sivilizatsiyalar doirasida tahlil qilganlar. Har ikki yondashuv davlatchilik tarixini tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Davlatning kelib chiqishini izohlovchi nazariyalar tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Teokratik nazariya qadimgi Sharq davlatlariga xos bo'lib, davlatni ilohiy iroda mahsuli sifatida talqin qiladi. Patriarxal nazariya esa qadimgi urug'-qabila

tuzumidan davlatga o'tish jarayonini izohlaydi. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi (T. Gobbs, J. Lokk, J.J. Russo) yangi davr davlatlarining shakllanishi bilan bog'liq. Zo'ravonlik nazariyasi qadimgi va o'rta asrlar istilolari misolida davlatning kuch ishlatish orqali vujudga kelganini asoslaydi. Materialistik nazariya esa davlatni ijtimoiy tabaqalanish mahsuli sifatida talqin qiladi. Davlatchilik tarixiy jihatdan sodda boshqaruv shakllaridan murakkab siyosiy tizimlarga tomon rivojlangan. Qadimgi davlatlarda markazlashgan hokimiyat ustuvor bo'lgan. O'rta asrlarda feodal tarqoqlik hukmronlik qilgan bo'lsa, yangi davrda mutlaq va konstitutsiyaviy monarxiyalar vujudga keldi. XIX–XX asrlarda esa respublika boshqaruvi, huquqiy davlat va demokratik institutlar shakllandi. Zamonaviy davlatchilik globalizatsiya sharoitida rivojlanib, xalqaro huquq va integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlanganligini kuzatish mumkin. Dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo'lishi, hunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat qurollarining takomillashishi mehnat unmdorligining oshishiga olib keldi. Ayni paytda urug' jamoasi xududiy qo'shni jamoasiga aylana bordi. Aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vaholarni dushmandan himoya qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston tarixiga doir voqea va hodisalarning tahliliga yangicha yondashish tufayli Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarining tashkil topishi tarixiga 3 ming yil bo'ldi, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin. Mil. avv. 1-ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat birlashmalari paydo bo'la boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma'muriy markazi bo'lib bordi. Davlatchiligimiz asosi qayerda va qaysi zamonda boshlanadi, degan savolga kelsak, tarixchilarimiz, ayniqsa, buyuk o'zbek arxeolog olimi Yahyo G'ulomov va rus akademigi S.Tolstovlarning ilmiy xulosalariga asoslanib, asosan Xorazmda yuzaga kelgan "Avesto" muqaddas

kitobiga tayanib, davlatchiligimizning asosi, bundan 2700-3000 yil muqaddam Xorazmda boshlangan deb javob berish mumkin bo'ladi. Akademik A.Asqarovning ilmiy fikriga ko'ra, Farg'ona, Baqtriya davlatlari ham 2800-3000 yil ilgari yuzaga kelgan. Biroz keyinroq Vatanimiz tarixida muhim o'rin egallagan So'g'diyona davlati vujudga keldi.

O'rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evolutsiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1-Davr mil.avv II-ming yillikning II-yarmi O'zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo'ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda topilgan;

2-Davr mil.avv I-ming yillikning boshi Xorazm, Baqtriya, So'g'd tarixiy madaniy viloyatlarining shakllanishi;

3-Davr Ahmoniyalar bosqini va O'rta Osiyoning Ahmoniyalar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus;

4-Davr mil.avv IV-II asrning II-yarmi Aleksandr Makedoniskiy bosib olgandan boshlab Yunon-Baqtriya podsholigining qulashigacha;

5-Davr mil.avv II-asrning II-yarmi va milodiy I-asr boshi. Mahalliy davlatlar: Qang', Xorazm podsholigi, So'g'd, Dovon davlatlarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi;

6-Davr milodiy I-asr boshidan III-asr o'rtalarigacha, mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi.

Xulosa qilib aytganda, davlatchilikning nazariy masalalarini kompleks tarixiy-nazariy tahlil qilish davlat instituti evolyutsiyasining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv davlatchilik tarixini ilmiy asosda tadqiq etish, zamonaviy davlat modellarini anglash hamda siyosiy-huquqiy tizimlarning rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Davlatchilik insoniyat tarixida murakkab ijtimoiy-siyosiy institut sifatida shakllangan. Uning vujudga kelishi ijtimoiy

differentiallashtirish, mulkiy munosabatlar va hokimiyatni markazlashtirish bilan bogʻliqdir. Davlatchilik tarixini davrlashtirish formatsion va sivilizatsion yondashuvlar orqali tushuntiriladi, shakllanish nazariyalari esa tarixiy jarayonlarni koʻp omilli tizim sifatida izohlaydi. Davlatchilik evolyutsiyasi qadimgi davrlardan zamonaviy demokratik institutlarga davom etgan boʻlib, uni ilmiy tahlil qilish davlat institutlari rivojini anglash va siyosiy-huquqiy tizimlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. B.Axmedov. “Oʻzbekiston xalqlari tarixi manbalari” T. Oʻqituvchi. 1991-yil
2. I.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq” T Oʻzbekiston 1998-yil
3. Oʻzbekiston tarixi 1-qism T. Universitet 1997-yil
4. www.arxiv.uz
5. www.xorazmiy.uz